

**Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi**

Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon she’riyatida uchrovchi badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lgan epitet, sifatlashlar tahlil asosida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy tasvir vositalari, poetik figuralar, stilistik figuralar, epitet.

Har qanday badiiy asarning ta’sirchanligini unda qo‘llanilgan badiiy vositalari ta’minlaydi. Badiiy tasvir vositalari qo‘llanmagan qaysi adabiy turga oid asar bo‘lmasin, shubhasiz, u adresatga hissiy ta’sir o‘tkaza olmaydi. Chunki asarning kitobxon uchun o‘qishli bo‘lishi faqat unda kechgan voqealar, asar sujeti bilan bog‘liq bo‘libgina qolmay, shu bilan birgalikda, unda qo‘llangan tasvir vositalari, badiiy so‘z orqali ifodalangan badiiy asarning kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi kabi unsurlar vositasida yuzaga keluvchi obrazlilik va emotsional-ekspressivlik bilan ham bog‘liq ravishda amalga oshadi.

Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb ataladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo‘lmish obrazlilik(tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda “poetik figuralar”, “sintaktik figuralar”, stilistik figuralar” kabi nomlar bilan ham yuritiladi[1:130]. Biz ushbu maqolada poetik figuralardan biri hisoblangan epitetni shoir Omon Matjon ijodi misolida tahlilga tortdik.

Ma’lumki, epitet yunon tilidan olingan so‘z bo‘lib, *ilova etilgan, izohlovchi kabi* ma’nolarni anglatuvchi badiiy sifatlash hisoblanadi. Epitet tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan turli xil funksiya bajaruvchi figuradir. Tilshunoslikning obykti sifatida epitet aniqlovchi vazifasida keluvchi sintaktik birlikdir. Biroq Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan u tubdan farq qiladi, ya’ni bu sohada u oddiy sintaktik birlik sifatida emas, balki obrazlilikni ta’minlab beruvchi muhim unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jumladan, bu tasvir vositasi shoir lirikasida ham keng qo‘llanuvchi birliklardan biri sanaladi. Shoirning “ochiq derazalar” kitobidan o‘rin olgan “Yulduzlar” she’rida lirik qahramon yulduzlarga sovuq, hislarga suluv sifatini yuklab, epitet, sifatlashni hosil qiladi:

Nega kuylamaysiz, sovuq yulduzlar,  
Suluv hislar sizga emasmi pisand?  
Yoki sizdan o‘zga olamdamanmi,  
Istaklarim kabi emassiz xursand[2:14].

Ko‘rinadiki, ushbu bandeda ijodkor yulduzlarga sovuq sifatini berish orqali lirik qahramonning ruhiy holatini ochib berishga intiladi. Bilamizki, badiiy adabiyotda yulduzlarga nisbatan an’anaviy sifatlashlar mavjud, biroq shoir bu obrazga ta’rif berishda an’anaviylikdan chekinadi, ya’ni unga sovuq sifatini berish orqali o‘zining novator shoir ekanligini isbotlaydi.

Ko‘p hollarda epitet belgini ko‘chma ma’no orqali ifodalaydi va bu holda metaforik epitet deb yuritiladi[3:363]. Omon Matjon qalamiga mansub ushbu bandeda ham metaforik epitetga misol keltirilgan:

Yo olis quyoshning elitib tafti,  
Yo oygacha borday shay taxtiravon,  
Yulduzga payvandday umr daraxti,

Loqayd abadiylik sig'inar inson[4:4].

“Qush yo‘li” kitobidan olingan ushbu she‘rdagi *olis quyosh, loqayd abadiylik* kabi birikmalardagi *olis, loqayd* so‘zlari metaforik sifatlash bo‘lib kelgan.

Shoir quyidagi bandda ham epitetning yorqin namunasini qo‘llar ekan, ushbu tasvir vositasida yordamida bildirmoqchi bo‘lgan fikrini ifodalaydi:

Odam yorug‘ xayollarga xoja ekan chin,  
Ko‘ngilda kin, g‘araz saqlab yurmagi xato.  
Yomonlarni bir kun albat jazolash uchun  
O‘chga o‘zi hakam ekan Tangri taolo[4:16].

Bandda *yorug‘ xayol* birikmasida ishtirok etgan *yorug‘* so‘zi sifatlash bo‘lib xizmat qiladi. Shoir ushbu misralarda insonlarni bir-biriga yaxshi munosabatda bo‘lib, gina-g‘araz saqlamasdan mehr-oqibatli, eng asosiysi kechirimli bo‘lishga chorlaydi. Kingadir qilingan yomonlik hech vaqt jazosiz qolmaydi, har kim ekanini o‘radi, Allohning o‘zi bir kun yomonlarni qilgan qilmishlariga yarasha jazosini beradi degan fikr ushbu bandda mujassam.

Qay kuni sinchiklab boqdim bir qushga:  
Nafsi deb tutildi olako‘z Moshga!  
Ming shukr, xudoyim, qorin bermabsan  
Mendagi qanotli xayolga – hushga![4:20]

She‘rda *qanotli xayol* birikmasida qo‘llangan *qanotli* so‘zi tasvir vositasi bo‘lib kelgan, bandni tahlil etar ekanmiz, unda insonning nafsi haqida so‘z borayotganiga amin bo‘lamiz, shoir inson nafsi tufayli turli balo-yu ofatlarga ro‘baro bo‘lishini hayvonlar misolida ko‘rsatib bergan. To‘rtlikning so‘nggi misrasida ijodkor obrazlilikdan foydalanib, go‘zal mazmun yaratadi, ya‘ni birinchi misrada keltirilgan qushning xususiyati endilikda lirik qahramonning xayollari – hushiga yuklatiladi. Shoir, agar mening xayollarimning qush kabi qanoti bo‘lganda edi, ular xuddi o‘sha qush kabi nafsi sabab halok bo‘lar edi, yaxshiyamki, ularga qorin bermabsan, degan mazmunni ushbu misralarga singdirgan.

Bu ne chirkin g‘urur, tiyiqsiz havo,  
Burningning uchiga ilinmas dunyo!  
Shoshma, nechchi pulsan, bilinib qolar  
Narigi pallaga tosh tushgan asno![4:23]

Ushbu bandda *g‘ururga* nisbatan *chirkin* so‘zini qo‘llash orqali metaforik epitet ishlatilgan. Band mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda kibr-u havoga berilib, o‘zidan boshqalarni pisand qilmaydigan, o‘zini bu dunyoga hokim deb biladigan, burni ko‘tarilgan shaxslarning tarozi pallasidagi bir toshchalik qiymatga ega emas ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Samovotda qora nur ko‘pdir,  
Quyoshdan ham u behad katta.  
Dunyo izlar shu‘lali taqdir,  
U ko‘nikmas aslo zulmatga[5:33].

She‘rda *shu‘lali taqdir* birikmasida qo‘llangan *shu‘lali* so‘zi sifatlashni hosil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, epitet Omon Matjon ijodida qahramonning ruhiy holati, ichki dunyosini obrazli ifodalashga xizmat qilgan bo‘lib, ular vositasida shoir kitobga o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni emotsional tarzda tasvirlab beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013.
3. Omon Matjon. Seni yaxshi ko'raman. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
4. Omon Matjon. Iymon yog'dusi. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
5. Omon Matjon. Yonayotgan daraxt. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997.

